

UDK: 338.26 (075)

AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI BOSHQARISHNING
INSTITUTIONAL JIHLARI

Qahhorov Otabek Siddiqovich,
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar
instituti, ilmiy ishlar, innovatsiyalar va xalqaro
aloqalar bo'yicha direktor o'rinbosari, iqtisodiyot
fanlari doktori (DSc), professor*
E-mail: otabek_kakhkhorov@mail.ru

Sayfulloyev Oybek Olimovich,
*Buxoro davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrasida tayanch doktoranti (PhD)*
E-mail: o.o.sayfulloyev@buxdu.uz

ANNOTATSİYA. Ushbu maqolada xorij tajribasida agroturizm faoliyatini tashkil etishning konseptsiyalarini tadqiq qilingan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i sifatida turizm sohasiga xususan, agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati yoritib berilgan. Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda ta'sir ko'rsatish tizimlari ko'rsatib o'tilgan. Agroturizmning qishloq hududlarini barqaror rivojlashini ta'minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Investitsiyalarning agroturizm sohasi rivojida ahamiyati tahlil qilingan. Agroturizm faoliyatini tashkil etishning hamda sohaga investitsiyalarni jalb etishning jahon tajribasi hamda ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, raqobatning kuchayishi va investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida notekis taqsimlanishi investitsiya jarayoni va uni bozor sharoitida boshqarishni yanada batafsil o'rganishni talab etishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: turizm, agroturizm, investitsiyalar, qishloq turizmi, menejment, marketing, aholi bandligi, boshqaruv mexanizmi, sayyoh, qishloq xo'jaligi, iqtisodiy taraqqiyot, infrastruktura, tadbirkorlik, agroturizm uyushmalari, ekologiya.

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассмотрены концепции организации агротуристической деятельности в зарубежном опыте. Также было освещено значение привлечения инвестиций в сферу туризма как ведущей отрасли экономики Узбекистана, в частности в сферу агротуризма. Проанализированы механизмы управления привлечением инвестиций в сектор агротуризма. В условиях Узбекистана существуют системы влияния в привлечении инвестиций в сферу агротуризма. Была подчеркнута важность агротуризма в обеспечении устойчивого развития сельских районов. Была проанализирована важность инвестиций в развитие сектора агротуризма. Был открыт мировой опыт организации агротуристической деятельности и привлечения инвестиций в сферу, а также возможности для их применения в Узбекистане. Было отмечено, что сложность производственных процессов в условиях рыночной экономики, отток конкуренции и неравномерное распределение инвестиций в секторах экономики страны требуют более детального изучения инвестиционного процесса и его управления в рыночных условиях.

Ключевые слова: туризм, агротуризм, инвестиции, сельский туризм, менеджмент, маркетинг, занятость, механизм управления, турист, сельское хозяйство, экономическое развитие, инфраструктура, предпринимательство, ассоциации агротуризма, экология.

ABSTRACT: This article discusses the concepts of organizing agrotouristic activities in foreign experience. The importance of attracting investments in tourism as the leading sector of the economy of Uzbekistan, in particular in the field of agrotourism, was also highlighted. The mechanisms of investment attraction management in the agrotourism sector are analyzed. In the conditions of Uzbekistan, there are systems of influence in attracting investments in the field of agrotourism. The importance of agrotourism in ensuring sustainable rural development was emphasized. The importance of investments in the development of the agrotourism sector was analyzed. The world experience of organizing agrotouristic activities and attracting investments in the sphere, as well as opportunities for their application in Uzbekistan, was discovered. It was noted that the complexity of production processes in a market economy, the outflow of competition and the uneven distribution of investments in the sectors of the country's economy require a more detailed study of the investment process and its management in market conditions.

Key words: tourism, agritourism, investment, rural tourism, management, marketing, employment, control mechanism, tourism, agriculture, economic development, infrastructure, entrepreneurship, agrotourism associations, ecology.

KIRISH

O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i sifatida tan olinar ekan, sohaga tegishli strategiyalar hamda dasturlarni ishlab chiqishda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va hisobga olish zaruriyati yuzaga keladi. Turizm to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiyot o'sishida ijobiy ta'siridan tashqari, shahar va qishloq joylarini, hududlarni ijtimoiy va madaniy sohada rivojlantirish uchun hissa qo'shadi. Turizm hududlarning madaniy va ekologik qadriyatlarini saqlab qolishga xizmat qilishi va nafaqat sayohat qilish, balki tarix hamda an'alarini faol ravishda targ'ib qilish vositasi bo'lishi ham mumkin. Biroq, "klassik ommaviy turizm" bilan ushbu vazifalar bajarish yetarli emas. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlari turizmning yangi shakllari: ekologik, ta'lim, qishloq, tibbiyot va boshqalarni faol qo'llab-quvvatlaydi hamda rivojlantiradi. Ushbu turizm shakllarini rivojlantirish bugungi zamonaviy sayyohlarning ehtiyojlari qondirish zaruriyati sababli ham muhim hisoblanadi. Hozirgi tendensiyalar, dunyodagi ekologik va iqtisodiy vaziyat soha mutaxassislarini yangi yondashuvlar hamda turizmning yanada barqaror shakllarini izlashga majbur qiladi. Xorij tajribasida qishloq joylarida turizm nisbatan yuqori ijobiy iqtisodiy ta'sirga ega ekanligi e'tirof etiladi. Mashhur axborot agentligi "Business Wire" kompaniyasi tahliliy ma'lumotlarida jahonda agroturizmning bozor hajmi 2019-yildagi 42,4 mlrd. AQSh dollaridan 2027-yilga kelib 62,9 mlrd. AQSh dollariga yetishi prognoz qilingan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tomonidan agroturizmga: "Sayyohlarning hordiq chiqarishi, odatda ekologik faoliyat, qishloq xo'jaligi, qishloq turmush tarzi, madaniyati, baliq ovlash va sayr qilish kabi keng turdagi xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan turizm faoliyati turi" deb ta'rif berilgan. Shuningdek, tashkilotning rasmiy saytida agroturizm:

- aholi zichligi kam bo'lgan;
- qishloq va o'rmon xo'jaligi ustuvor bo'lgan;
- an'anaviy ijtimoiy tuzilish va turmush tarziga ega bo'lgan qishloq joylarida

amalga oshirilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan [2].

Agroturizm hamda unga investitsiyalarni jalb qilish masalalari esa J. Kloeze [3], M. Kaluina [4], H. Marquez [5], A.S. Kuskov va Yu.A. Jaladyan [6] tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Agroturizm rivojlangan mamlakatlarda sohaga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning institutsional jihatlari bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish usullari umumilmiy va tarixiy usullar hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida agroturizm rivojlangan mamlakatlarda sohaga investitsiyalarni jalb etishni boshqarishning institutsional jihatlari o'rganishga

tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda xorij tajribasida agroturizm faoliyatini tashkil etishning ikkita konsepsiyasi mavjud. Birinchi konsepsiya shaxsiy uy xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning barcha risklarni o'z bo'yniga olgan holda qishloq joylarida turizm faoliyati bilan shug'ullanishida o'z aksini topadi. Bunda qishloq joylarida turizm tashqi investitsiyalarni jalb qilmasdan shaxsiy resurslar hisobidan tashkil etiladi hamda rivojlantiriladi. Ikkinchi konsepsiya qishloq joylarda turizmni kompleks tarzda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Qishloq turizmi yordamchi ishlab chiqarish sifatida emas, balki sayyohlar uchun qishloq hayotining barcha jozibali jabhalaridan foydalanishga qaratilgan maksimal tarzda dam olish xizmatlarini ko'rsatadigan asosiy biznes sifatida qaraladi [7]. Bugungi kunda, agroturizm rivojlangan Yevropa mamlakatlarida sohil turizmidan keyin ikkinchi o'rinda turadi va butun turizm sanoatidan olinadigan foydaning 30 foizini tashkil etadi [8].

Agroturizmning alohida yo'nalishi sifatida shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ko'pgina tadqiqotchilar bu holatni ekologik muammolar to'g'risida xabardorlikni va jamiyatga texnogen bosimning oshishi hamda urbanizatsiya darajasining o'sishi bilan izohlashadi. Shuningdek, milliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, qishloq va shahar aholisi turmush darajasining farqlanishini kamaytirish istagi va boshqa ko'plab omillar butun dunyo bo'ylab agroturizmning o'sishiga olib keldi. Xorij tajribasini o'rgangan holda agroturizmni rivojining "4 to'lqini"ni keltirib o'tish mumkin (1-rasm).

Agroturizm rivojining "birinchi to'lqini" g'arbiy Yevropada: Fransiya, Italiya, Angliya, Germaniya, Ispaniya kabi mamlakatlarda paydo bo'lgan deb ishoniladi [9]. Agroturizmning rivojlanishida Yevropada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmiga qo'yilgan cheklovlar, Amerika qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatning kuchayishi, milliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini himoya qila olmaslik xavfi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy inqiroz kabilar turtki berdi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra, agroturizm inqirozning salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etishga imkon beradigan qishloq xo'jaligini qayta qurishning hamda qishloq joylarda kichik biznesning yangi shakllarini yaratishning iqtisodiy vositasi sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Shu sababli ushbu mamlakatlarda agroturizm sohasi hamda sohaga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan investorlar davlat tomonidan jiddiy qo'llab - quvvatlandi. O'z navbatida, ushbu qo'llab-quvvatlash agroturizmni turizm sanoatining eng ilg'or sohalaridan biriga aylantirdi.



1-rasm. Agroturizm rivojining “4 to‘lqini”¹

Yevropada turli mamlakatlarning o‘ziga xos sharoitlari bilan bog‘liq holda bir-biridan sezilarli darajada farq qiluvchi turli maqsadlarga yo‘naltirilgan hamda turli muammolarni hal etishga qaratilgan bir necha agroturizm modellari mavjud. Ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida agroturizm milliy turizm sanoatini rivojlantirishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida tan olinib, turizmni rivojlantirishning milliy kopsepsiyalarida o‘z ifodasini topgan.

Agroturizmning institutsional asoslari ilk marta Fransiyada paydo bo‘la boshladi. 1955-yilda qishloq xo‘jaligi va turizm assotsiasiyasi tashkil etildi [10]. Bugungi kunda qishloq turizmini qo‘llab-quvvatlash oid bunday uyushmalar Yevropaning aksariyat mamlakatlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Agroturizm assotsiasiyalari turoperatorlar, agroturizm sohasida faoliyat olib boruvchilar va hukumat orasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, ularning hamkorligini ta‘minlash, agroturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchilarining umumiy manfaatlarini himoya qilish, agroturizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, agroturistik xizmatlarni targ‘ib qilish, sohaga investorlarni jalb qilish kabi vazifalarni bajaradi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Agroturizmga investitsiyalarni jalb qilishda agroturizm assotsiasiyalarining ahamiyati yuqoriligi Fransiya misolida ko'rish mumkin. "Gites de France" milliy federatsiyasi nafaqat mamlakatda qishloq turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtiradi, shuningdek, fermer, dehqon xo'jaliklariga tegishli sifat belgisini taqdim etadi. Ushbu sifat belgisi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, ularning soni toifani belgilab beradi. "Gites de France" milliy federatsiyasi byudjetining 70 foizini a'zolik badallari, 5 foizini davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar, 25 foizini o'z faoliyati natijasida olinadigan daromadlar tashkil qiladi [11]. Ya'ni, federatsiyaga a'zolik uchun agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar a'zolik badallarini to'lashadi, shuningdek davlat tomonidan ham subsidiya ajratadi. O'z navbatida ushbu tashkilot:

- agroturizm xo'jaliklarining texnik va ekspluatasion sharoitlarini aniqlashda yordam beradi;
- tuzilmalarga tegishli ruxsatnomalarni taqdim etadi;
- mamlakatda va mamlakat tashqarisida agroturizm xizmatlari va brendlarning ommalashuvini targ'ib qiladi;
- agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchilarning kataloglarini yaratadi;
- mijozlar orasida soha xizmatlariga oid turli xil anketa so'rovnomalarini o'tkazib turadi;
- agroturizm tashkilotlariga tashkiliy, huquqiy va ta'lim xizmatlari yuzasidan yordam ko'rsatadi.

Fransiyada maktab ta'tillari davrida o'quvchilar qishloq joylarida dam olishi uchun maxsus dastur ishlab chiqilgan. 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar qishloq oilasida yashashga, uy hayvonlariga parvarish va g'amxo'rlik qilishga, tengdoshlari bilan ochiq havoda o'yinlarga, qiziqarli sayohatlarga hamda sarguzashtlarga taklif qilinadi. Shuningdek, qishloqda bolalar tarixiy xalq o'yinlari, hunarmandchiligi, folklorlari hamda xorijiy tillarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar [12]. Ushbu imkoniyatlar mahalliy boshqaruv organlari hamda agroturizm assotsiasiyalari tomonidan keng targ'ib qilinadi.


Fransiyada agroturizmni rivojlantirish Qishloq xo'jaligi vazirligining moliyaviy yordami, Qishloq xo'jaligi kredit fondi hamda Mehmonxonalarini kreditlash fondi mablag'larini yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, Fransiyada agroturizm rivojida qishloqlarda yaratilgan yaxshi infratuzilma va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy hokimiyat organlari qishloq joylarida agroturizm turar joylari tashkil etish uchun talab qilinadigan mablag'ning 10 foizi miqdorida dotasiya ajratishi mumkin. Agar ushbu ob'ektlar Yevropa Ittifoqi talablariga javob bersa, tadbirkorlar 12 kunlik sohaga oid treningdan o'tish sharti bilan talab qilinadigan mablag'ning 30 foizini qo'shimcha ravishda olishlari mumkin [13].

Yevropada Italiya Fransiya agroturizm sohasida munosib raqobat taqdim eta oladi. Italiyada agroturizmning rivojiga nafaqat tabiiy sharoitlar va boy

tarixiy me'ros, shuningdek, kuchli me'yoriy-huquqiy bazaning yaratilganligi ham ta'sir ko'rsatgan. Italiya agroturizm sohasiga oid qonuniy asosni (1973-yilda) yaratgan birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Keyinchalik, Trento avtonom viloyatida sohaga oid maxsus qonun qabul qilindi, unda operator kompaniyada qishloq joylariga ekskursiyalarni tashkil etish bilan shug'ullanadigan xodim bo'lishi kerakligi belgilandi. Qishloq turizmining alohida maqomi birinchi marta Italiyaning turizm to'g'risidagi qonunida (217-son, 1983-yil 17-may qabul qilingan) belgilab berildi. Keyingi qadam qishloq turizmi to'g'risida alohida qonunning qabul qilinishi edi (730-son, 1985-yil 5-dekabr). Bu qonun bilan qishloq va sayyohlik faoliyati o'rtasidagi munosabatlarning asosiy tamoyillari o'rnatildi. Hozirgi kunda Italiyada 2006-yilda qabul qilingan qishloq turizmi to'g'risidagi qonun mavjud (96-son, 2006-yil 20-fevral) [14]. Ushbu qonun bilan qishloq turizmini barqaror rivojlantirishda, shuningdek, milliy dasturlarni ishlab chiqishda Yevropa Ittifoqi doirasida umumqabul qilingan dasturlar bilan uyg'unlikni ta'minlashga urg'u berilgan. Qonun hujjatlariga muvofiq, hatto eng arzon turar joy bilan ta'minlaydigan fermer xo'jaliklari ham agroturizm xizmatlarini ko'rsatishga oid maxsus ta'lim va tayyorgarlik bosqichlaridan o'tgan taqdirdagina sayyohlarni qabul qilish huquqiga ega bo'lishadi. Shuningdek, Italiyadagi agroturizmning o'ziga xos xususiyati: sayyohlarni qabul qiladigan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatini to'xtatmaslik sharti qonuniy tartibga solingan majburiyat hisoblanadi. Sayyohlarni faqatgina maxsus o'quv kurslaridan o'tgan fermer xo'jaliklari qabul qiladi va sayyohlarning yashash joylari Yevropa standartlariga javob beradi [15]. Investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar natijasida mashhur biznes platformasi, shuningdek bozor va iste'molchilar haqida ma'lumotlarini yetkazib beruvchilar orasida yetakchi hisoblanuvchi, statistika ma'lumotlarga ko'ra, Italiyada koronavirus pandemiyasigacha bo'lgan davrda agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar soni doimiy ravishda oshib bordi (2-rasm).

Italiyadagi agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar soni 2021-yilda 2012-yil nisbatan 10,7 foizga oshgan. 2019-yil ko'rsatkichlariga ko'ra ushbu nisbat 17 foizni tashkil qiladi. Ularga 2021-yilda 1,9 mln. mahalliy sayyoh va 1,1 mln. xalqaro sayyoh tashrif buyurdi [17]. Italiyadagi agroturizm subyektlarida mavjud bo'lgan takliflar soni 2010 -yildan 2020- yilgacha barqaror o'sib bormoqda. 2020-yilda bunday muassasalar tomonidan taklif qilingan yotoq joylari soni taxminan 281 mingga etdi. 2021-yilda esa taxminan 275 mingtani tashkil etdi [18].

Italiyada agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchi xo'jaliklar qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun katta hududlar va ishlab chiqarish quvvatlari talab qiladigan tepaliklarda yoki tog'larda joylashgan bo'lib, asosiy faoliyat orqali yo'qotilishi mumkin bo'lgan foyda agroturizm xizmatlari ko'rsatish orqali qoplanadi. Agroturizm tufayli Italiya qishloqlari qimmatbaho tarixiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini saqlab qoldi.



2-rasm. Italiyadagi agroturizm xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlar soni (2012-2021-yillar) [16]

Germaniyada xam agroturizm hukumatning barcha darajalarida juda katta miqyosda qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu siyosat iqtisodiy omillarga ham, qishloq joylarining madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish istagiga ham asoslangan. Germaniyada fermer xo'jaliklari o'rtasida agroturizm keng tarqalgan bo'lib, sayyohlar uchun fermer uyida yashashni, shu jumladan xo'jalik ishlarida yordam berishni o'z ichiga oladi. Germaniyadagi agroturizmning o'ziga xos jihati shundagi, turizm ko'pincha qishloqlardagi an'anaviy va tarixiy marosim hamda tadbirlar bilan bevosita bog'liq. Folklorlar, festivallar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalari, boshqa ko'plab qishloq hayoti bilan bog'liq bo'lgan marosim hamda tadbirlar sayyohlar uchun qishloqlarda dam olishning an'anaviy tarkibiy qismiga aylangan. Germaniyada ham qishloq turizmini rivojlantirish davlat darajasida amalga oshiriladi. Germaniya federativ yerlari vazirligi esa agroturizm muammolari, amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar, rivojlanish konsepsiyalari, agroturizmni moliyalashtirish, sifat talablarini ishlab chiqish, takliflarni tasniflash bilan shug'ullanadigan alohida bo'linmalarni yaratadilar [19]. Agroturizm faoliyati bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar o'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan federal yer dasturi doirasida moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi.

Agroturizm rivojining "ikkinchi to'lqini" yuzaga kelgan mamlakatlar guruhiga odatda Kipr, Gresiya, AQSh kiradi. Ushbu mamlakatlarda yetakchi mamlakatlarning ushbu sohadagi tajribasiga asoslanib, sohani rivojlantirishning davlat tuzilmalari darajasida hal qilishning yuqori darajadagi markazlashuvi yuz berdi.

Agroturizmni rivojlantirishning bunday yondashuviga odatiy namuna Kiprdir. Bu yerda 1989-yilda haddan tashqari ekologik bosim tufayli qirg'oq atrofidagi hududlarni rivojlantirishga moratoriy qabul qilindi. Bu holat esa

turistik oqimlarni qayta taqsimlash masalasida davlat darajasida qarorlar qabul qilishni tazoqo etdi. Shu maqsadda turizmni rivojlantirishning barcha yangi yo'nalishlari har tomonlama tahlil qilinib, natijada mamlakatda agroturizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqildi. Ushbu davlat dasturida qishloq aholisiga uylarini sayyohlarni qabul qilish va agroturizm xizmatlarni targ'ib qilishda yordam berish uchun subsidiyalar ajratish nazarda tutildi. 1995-yilda Kipr agroturistik kompaniyasi tashkil etildi. Hozirgi kunda 60 dan ortiq ro'yxatga olingan agroturistik xo'jaliklar qishloq joylarda turizm xizmatlarini taklif etmoqda [20].

Agroturizm rivojining "ikkinchi to'lqini" yuzaga kelgan mamlakatlar guruhiga AQSh ham kiritiladi. Amerika mentalitetining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bu yerda shakllangan agrouturizm modeli Yevropadan farq qiladi. Yevropada qishloq aholisini ish va daromad olish manbalari bilan ta'minlash uchun jamiyat javobgar bo'lishi kerak deb hisoblansa, Amerika jamiyati bunday majburiyatlardan holi hisoblanadi. Buning o'ziga xos iqtisodiy omillari ham mavjud: Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bitta fermer xo'jaligiga o'rtacha 14 gektar yer to'g'ri kelsa, AQSh da bu ko'rsatkich – 190 gektarni tashkil etadi [21].

Agroturizm rivojining "uchinchi to'lqini" Sharqiy Yevropa mamlakatlarini o'z ichiga oladi. Agroturizmni kompleks rivojlantirishga yondashuv nuqtayi nazaridan, Yevropa hamjamiyatining nisbatan yangi a'zolari tajribasini ko'rib chiqishning ahamiyatga molik. Ushbu davlatlar keyinchalik Yevropa Ittifoqiga qo'shildi va ushbu sohadagi Yevropa tajribasining davomchilariga aylandi. So'nggi yillarda agroturizm sohasi rivojida hamda sohaga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha katta yutuqlarga erishgan Polsha bu holatda eng yorqin misol bo'la oladi. Agroturizm rivojlanishiga davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan tashqari, Yevropa Ittifoqining muhim moliyaviy yordami ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunda agroturizmning Polsha YaIMdagi ulushi 4 foizini tashkil etadi [21]. Bunday muvaffaqiyat davlat tomonidan qabul qilingan hamda amalga oshirilgan turli darajadagi kompleks chora-tadbirlar natijasidir. Ular orasida eng muhimlari: "qishloq turizmi" konsepsiyasini qonunchilik bilan birlashtirish va sohaga oid me'yoriy-huquqiy bazani yaratish; ushbu faoliyat bilan shug'ullanadigan fermerlarni turizm faoliyatidan olingan daromad solig'idan ozod qilish; qishloq joylarda turizm sohasida tadbirkorlikni yuritish standartlarini ishlab chiqish; mehmonlarni joylashtirish vositalarini bepul ro'yxatdan o'tkazish; ko'chmas mulklar bo'yicha soliq stavkalarining o'sishini cheklash hisoblanadi. Polshadagi qishloq aholi punktlari umumiy maydonning 93 foizidan ortig'ini egallaydi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining asosini kichik biznes tashkil etadi. Ularning son miqdoriga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni Yevropa Ittifoqiga qaraganda ancha past va 5,9 gektardan iborat [21].

Agroturizm rivojining "to'rtinchi to'lqini" yuz bergan mamlakatlar qatoriga Sobiq ittifoq mamlakatlaridan hisoblangan Belarus Respublikasini kiritish

mumkin. Ushbu mamlakatda agroturizm faol rivojlanayotgan barqaror turizmning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Belarus Respublikasida 2003-yildan “Qishloqda dam olish” (“Otdix v derevne”) tashkiloti o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu mamlakatda agroturizmni rivojlantirishdagi birinchi qadam ushbu yo‘nalishda qonunchilik asoslarini yaratilishida ko‘rinadi. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2006-yil 2-iyunda 372-son “Belorus Respublikasida agroekoturizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan agroekoturizm sohasiga investitsiya kiritmoqchi bo‘lgan investorlarga “Belagroprombank”ning imtiyozli kreditlari ajratilishi belgilab qo‘yildi.

Dasturda agroturizm subyektlariga agroekoturizmni rivojlantirish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq maqsadlar: qishloqdagi agroturizm komplekslarini modernizasiya qilish, tiklash, qurilish uchun materiallar sotib olish, ta‘mirlash ishlari va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish, uy-ro‘zg‘or buyumlari va transport vositalarini xarid qilish va boshqa maqsadlar uchun kredit berish ko‘rsatib o‘tilgan. Kreditlar 7 yilgacha bo‘lgan muddatga, yiliga 5 %, garovsiz, kafillik ostida bazaviy hisoblash miqdorining (2022-yil 1-yanvar holatida 32 Belarus rubliga teng) 2000 (ikki ming) barobarigacha bo‘lgan miqdorda ajratiladi [22].

1-jadval

Belorus Respublikasida agroekoturizm subyektlari sonining hududlar kesimida o‘shish dinamikasi [23]

Yillar / Hudud	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Belorus Respubliki	1 247	1 576	1 775	1 881	2 037	2 263	2 279	2 319	2 473	2 760	2 936	3 150
Brest viloyati	151	178	199	253	296	346	343	368	388	423	434	462
Vitebsk viloyati	322	359	401	449	502	605	606	609	601	647	670	732
Gomel viloyati	131	332	358	289	228	196	180	161	156	171	182	206
Grodno viloyati	180	185	229	246	281	303	324	327	356	399	433	455
Minsk viloyati	255	304	412	482	541	597	639	662	763	891	972	1 054
Mogilyov viloyati	208	218	176	162	189	216	187	192	209	229	245	245

Belorussiyada agroekoturizm faoliyati bilan jismoniy shaxs (fermer), yakka tartibdagi tadbirkor va ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar sifatida shug‘ullanish mumkin. Ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan va agroturizm faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan fuqarolar o‘z faoliyatini tashkil etish uchun subsidiya olishlari mumkin. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2006-yil

2-iyunda 372-son Farmon qabul qilinganidan so‘ng agroturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar soni doimiy ravishda ko‘payib bordi. 15 yil ichida (2006-2016) agroekoturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar soni 34 dan 2 279 gacha o‘ydi. 2021-yilda esa ularning soni 3 150 taga yetdi (1-jadval).


Agroekoturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar 2021-yilda 563,6 ming nafar sayyohga xizmat ko‘rsatgan (2-jadval).

2-jadval

Belarus Respublikasida agroekoturizm xizmatlarini ko‘rsatilgan sayyohlar soni [24]

Yillar / sayyohlar kategoriyasi	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Belarus Respublikasi fuqarolari	276 995	261 335	271 410	317 500	379 168	465 744	424 164	551 395
Boshqa mamlakatlar fuqarolari	41 847	32 946	30 374	33 628	43 132	49 023	9 130	12 209

Shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni kuzatish mumkinki, agroturizm rivojlangan Yevropa mamlakatlarida uning istiqbollari birinchi navbatda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan baholanadi, ular hududiy dasturlar hamda qonunlar qabul qilish orqali uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Xalqaro darajada qishloq turizmining faol rivojlanishi Yevropa agroturizm uyushmalari tomonidan targ‘ib qilinadi.



3-rasm. Qishloq turizmi halqaro uyushmalari²

Yevropa qishloq turizmi federatsiyasi (EuroGites) – geografik jihatdan Yevropaning 27 davlatidan tarkib topgan holda 34 ta professional savdo

²Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

tashkilotlari tomonidan tuzilgan. Federasiya 500 ming mikrofirma va taxminan 5-6,5 million o'rinli turistik infratuzilmani qamrab oladi [25]. Mikrofirmalar tarkibi qishloq joylarida yotoq va nonushta xizmati qo'rsatuvchi fermer xo'jaliklari, kichik oilaviy qishloq mehmonxonalari, ovqatlanish va boshqa qishloq turizmiga oid xizmatlarini ko'rsatuvchilardan iborat. Shuningdek, ushbu federatsiya agroturizm sohasida faoliyat olib boruvchilar hamda sohaga investitsiya kiritmoqchi bo'lgan investorlar uchun malaka oshirish, kadrlar tayyorlash, sohani raqamlashtirish orqali yangi muammolarni hal qilish hamda yuzaga keladigan sohaga oid yangi xizmat turlarini tahlil qilib borish kabi vazifalarni bajaradi.

Organik fermer xo'jaliklarida ko'ngilli ishchilar uyushmasi (WWOOF) – 1971-yilda Buyuk Britaniyada tashkil etilgan va dunyodagi birinchi ta'lim va madaniy almashuv dasturlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda uyushma dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarni qamrab olgan [26]. Uyushma butun dunyo bo'ylab ko'ngillilar va fermer xo'jaliklarini birlashtiradi. Ko'ngillilar istagan davlatlariga borib fermerlarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarida yordam berishlari mumkin. Fermer esa o'z navbatida ularni uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. Uyushma – tashrif buyuruvchilarni fermerlar bilan bog'lash, madaniy va ma'rifiy almashuvni rag'batlantirish va organik dehqonchilik va qishloq xo'jaligi amaliyotidan xabardor bo'lgan hamjamiyatni butun dunyo bo'ylab shakllantirishga qaratilgan harakatdir.

Yevropa ekologik va agroturizm markazi (ECEAT) – faoliyati barqaror qishloq turizmini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil milliy va mintaqaviy tashkilotlarni birlashtiradi hamda qishloq xo'jaligi, turizm va atrof muhitning uyg'un kombinatsiyasi va integratsiyasiga yordam beradi. Tashkilot 1991-yilda Polshada tashkil topgan. Bugungi kunda Yevropaning 20 ta davlatida faoliyat olib boruvchi hamkor tashkilotlarning halqaro tarmog'i hisoblanadi. Asosiy maqsadi fermer xo'jaliklari va qishloq aholisini qo'shimcha daromad manbai bilan ta'minlash orqali agroturizm sohasini rivojlantirish hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon amaliyoti agroturizmning turizm sohasi tizimida ham, umuman mamlakatlar iqtisodiyotida ham tobora ortib borayotgan ahamiyatini namoyon qilmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra yiliga turizm sanoatining ushbu sohasining 6% gacha bo'lgan jadal o'sish ko'rsatkichlari quyidagi omillarga bog'liq hisoblanadi:

- agroturizm qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozor talabiga nisbatan ortiqcha ishlab chiqarish sharoitida qishloq xo'jaligi tadbirkorligining bir qismini ishlab chiqarish sohasidan xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi;

- agroturizm qishloq va shahar aholisining turmush darajasidagi farqlarni minimallashtirishga, qishloq aholisining daromad darajasini oshirishga yordam beradi;

- agroturizm tarixiy-madaniy o'zlikni namoyon qilish, milliy an'analar va turmush tarzini saqlash hamda rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi;

- agroturizm zamonaviy sayyohlarning muhim qismining ehtiyojlarini qondiradi, dam olish uchun shahar makonini tark etishiga va tabiatga, o'z mamlakati va boshqa davlatlarning milliy madaniyatining kelib chiqishiga qo'shilishga intiladi.

Agroturizm faoliyatini tashkil etish, sohaga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning ilg'or xorijiy tajribasini o'rgangan holda, mamlakatimizda mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda agroturizmning tashkiliy-huquqiy asoslarini hamda iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishni, sohaga investitsiyalarni jalb qilishni va ularning samaradorligini aniqlashni muhim deb hisoblaymiz. O'zbekiston agroturizm rivojining "to'rtinchi to'lqini" ga kirish uchun barcha imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda qishloq joylarining turli xil tabiiy, etnografik, madaniy va boshqa resurslari, narx va sifatning maqbul kombinatsiyasi asosida raqobatbardosh agroturizm tizimini yaratishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatimiz doimiy aholisi soni 2022-yil 1-iyul holatida 35 603,4 ming nafarni, shundan qishloq aholisi soni 17 486,4 ming nafarni tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasi 50,9 foizga teng. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishning umumiy hajmi 240 233,1 mlrd. so'mni tashkil yetgan. Umumiy hajmning 66,6 foizi – dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 28,7 foizi - fermer xo'jaliklari hamda 4,7 foizi - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yil 1 yanvar holatida 46 501 taga yetgan. Bu 2021-yilning mos davriga nisbatan 12,5 foizga yoki 5 180 taga ko'p [27]. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirish hamda sohaga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati naqadar yuqoriligi ko'rsatmoqda.

Tadqiqotlar natijasida jahon tajribasini o'rgangan holda quyidagi xulosa va takliflarni berish mumkin:

❖ Agroturizm sohasiga oid qonuniy asosni yaratmasdan turib, sohaga investitsiyalar jalb qilina olmaydi.

❖ Sohaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun asos bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazani yaratishdan tashqari, muhim bosqich va muvaffaqiyat belgisi bu sohaga yirik investorlar, bozor o'yinchilarining kelishi yoki yangilarini yaratish hisoblanadi.

❖ Soha rivoji uchun milliy hamda hududiy agroturizm uyushmalarining tashkil topishi muhim hisoblanadi.

❖ Sohaga investitsiyalarni jalb qilish uchun mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining samaradorligi hamda qishloqlarda yaratilgan yaxshi infratuzilma muhim ahamiyat kasb etadi.

❖ Soha rivoji uchun agroturizm bozorida turoperator va turirmalarning faolligi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.businesswire.com/news/home/20210323005538/en/Global-Agritourism-Market-2021-to-2027-by-Activity-Sales-Channel-and-Region-ResearchAndMarkets.com>
2. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) rasmiy sayti ma'lumotlari <https://www.unwto.org/rural-tourism>
3. Bartmann, B., Baum, T., Promoting the Particular as a Niche Cultural Tourism Development Strategy in Small Jurisdictions, Progress in Tourism and Hospitality Research 1998, Proceedings of the Eighth Australian Tourism and Hospitality Research Conference, Bureau of Tourism Research, Australia.
4. Kaluina M. Travel and Tourism in Eastern Europe. Euromonitor International, 2013. - 24 p.
5. Marques H. Searching for complementarities between agriculture and tourism-the demarcated wine-producing regions of northern Portugal // Tourism Economics. – 2006. – Vol. 12. – No. 1. – P. 147-155.
6. Кусков А.С., Джаладян Ю.А. Основы туризма. –М.:Кнорус, 2010.–400 с.
7. Казьмина Е.Б. Развитие услуг сельского туризма в Российских регионах. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.- Москва, 2012. – 70 с.
8. Казначеева С.Н., Челнокова Е.А., Коровина Е.А. Агротуризм как одно из перспективных направлений индустрии туризма // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2017. – № 3-2. – С. 249.
9. Слинкова О. К. Агротуризм в системе мирового туристского рынка // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. – Т. 3, № 3, 2017.
10. Н. В. Зайцева, И. Н. Кандричина. Туризм на сельских территориях: перспективный бизнес с сохранением историко-культурного наследия// журнал Труды БГТУ. , 2020 г, Серия 6, № 1, с. - 78.
11. Кудла Н.Є. Сільський туризм: основи підприємництва та гостинності//Навч. посіб. – К. : Центр учбової літератури, 2015. – 152 с.
12. <https://www.businesswire.com/news/home/20210323005538/en>
13. Васильев В.П. Мировой опыт организациии сельского туризма: метод. пособ. // У.П. Васильев, ПА. Горішевський, Ю.В. Зинько и др. — Вин. 1. - А. : 2009. - С.23.

14. Сурнина В.В. Направления совершенствования современной государственной политики туризма: сельский туризм // Вестник МГОУ. Серия «История и политические науки». № 4 / 2011. с.-171.
15. <http://penisola.org/turista/riposo/agroturizm-v-talii.html#ixzz7TKS>
16. Отпуск в белорусской деревне [Электрон манба]. – манба ҳаволаси: <https://learngerman.dw.com>
17. <https://www.statista.com/statistics/1048054/tourist-arrivals-in-agri-tourism-facilities-italy-by-nationality>
18. <https://www.statista.com/statistics/787148/number-of-beds-in-agri-tourism-facilities-in-italy>
19. <https://lifekostroma.ru/turizm/turizm-v-germanii-osnovnye-osobnosti-selskogo-turizma.html>
20. Слинкова О. К. Агротуризм в системе мирового туристского рынка // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. – Т. 3, № 3, 2017.
21. Крутиков, В.К., Федорова, О.В., Гворыс, В. Развитие сельского туризма: преодоление инерции торможения (анализ отечественного и зарубежного опыта) // Российское предпринимательство, № 23 (245), 2013, с. 98.
22. Карпенко Е.М., Карпенко В.М., Павлова Д.А. Возможности развития агротуризма в Беларуси и факторы его определяющие //Экономический вестник университета. Сборник научных трудов ученых и аспирантов. – 2017. – №. 33-1. – С. 86-93.
23. Belarus Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida. Elektron manba: <http://www.dataportal.belstat.gov.by/Indicators/Preview?key=205625>
24. Belarus Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida. Elektron manba: <http://www.dataportal.belstat.gov.by/Indicators/Preview?key=205626>
25. https://www.tourismcareers.eu/team_type/eurogites
26. <https://wwwoof.net/fowo>
27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy <http://www.stat.uz>